

*“O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi majlisining
2025-yil “30” sentabrdagi
4-2025-sonli Bayoniga
19-ilova*

“O‘ZAVTOSANOAT” AKSIYADORLIK JAMIYATIGA
Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni kompleks tekshirish bo‘yicha
YO‘RIQNOMA

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo‘riqnoma (keyingi o‘rinlarda – Yo‘riqnoma) “O‘zavtosanoat” AJga (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) ishga qabul qilishda nomzodlar tekshiruvini o‘tkazishning tamoyillari, talablari, tartibi va muddatlarini belgilovchi ichki hujjat hisoblanadi.

2. Ushbu Yo‘riqnomaning maqsadlari quyidagilardir:

nomzod tomonidan taqdim etilgan o‘zi, uning professional faoliyati, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar bilan qarindoshlik va tijorat aloqalari haqidagi ma’lumotlarni tekshirish;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Jamiyatning ichki hujjatlari talablariga muvofiq halol, sifatli, puxta, xolis amalga oshirishga qodir jismoniy shaxslar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishga erishilishini ta’minlash;

Jamiyatda lavozim majburiyatlarini bajarish uchun etarli bilim va tajribaga ega bo‘lmagan, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan shuningdek ularni ishga olish Jamiyat uchun obro‘, korrupsiyaga oid yoki boshqa xatarlarga olib keluvchi nomzodlar bilan mehnat munosabatlariga kirishish xatarini minimallashtirish;

rahbarlik va moddiy javobgarlik bilan bog‘liq lavozimlarga bilimli, halol, vijdonli, qonunga itoatkor xodimlarni tanlab olish.

3. Ushbu yo‘riqnoma ishga qabul qilishda O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari bilan alohida tartib belgilangan lavozimlarga nisbatan tadbiq etilmaydi.

2-bob. Asosiy tushunchalar

4. Ushbu Yo‘riqnoma maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

korruptsiyaviy xarakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

manfaatlar to‘qnashuvi – Jamiyat xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, Jamiyatlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

nomzod – Jamiyatning bo‘sh ish o‘rni talablariga javob beruvchi, vakant ish joyiga tanlab olingan jismoniy shaxs.

noqonuniy foyda – va‘da qilinadigan, taklif etiladigan, taqdim etiladigan yoki qonuniy asossiz olinadigan pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk, yoki mulkiy huquqlar, afzalliklar, imtiyozlar, xizmatlar, nomoddiy aktivlar, boshqa har qanday moddiy yoki nomoddiy foyda;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarish doirasida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo‘lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari);

Yaqin qarindoshlar - ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

3-bob. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirishga qo‘yilgan umumiy talablar va ularning muddatlari

5. Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi va Komplayens, ishlab chikarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti (keyingi o‘rinlarda – Ijrochi tuzilmalar) nomzodlarni tekshirish uchun mas’ul hisoblanadi.

6. Tekshiruv barcha doimiy va muddatli lavozimlar uchun nomzodlarga, shuningdek fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo‘yicha qabul qilingan nomzodlarga nisbatan amalga oshiriladi.

7. Agar xodimlarni tanlab olish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Kelishish lozim bo‘lgan mas’ul davlat idoralari) tomonidan amalga oshirilsa, nomzodlarni tekshirish nomzod qabul komissiyasi bayonnomasi bilan tasdiqlangandan so‘ng, biroq mehnat shartnomasi tuzilmasidan oldin amalga oshiriladi.

8. Agar nomzodlarni tanlab olish Kelishish lozim bo‘lgan mas’ul davlat idoralari ishtirokisiz amalga oshirilsa, u holda ishga qabul qilinayotgan nomzod professional tanlov va (yoki) testdan muvaffaqiyatli o‘tgach, biroq mehnat shartnomasi tuzilmasdan avval tekshiriladi.

9. Nomzodni tekshirish 3 (uch) ish kunigacha bo‘lgan muddatda amalga oshiriladi.

10. Nomzodni belgilangan muddatlarda tekshirish xolis sabablarga ko‘ra imkonsiz bo‘lsa, uning davomiyligi 5 (besh) ish kunigacha bo‘lgan muddatga cho‘zilishi mumkin.

4-bob. Tekshirish uchun hujjatlar va ma’lumotlarni olish

11. Nomzodni tekshirishni amalga oshiradigan Ijrochi tuzilmalar xodimlariga tekshiruvni o‘tkazish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

Xodimlar bilan ishlash boshqarmasiga nomzod tomonidan:

Nomzodlar tanlov Nizomiga ko‘ra ochiq tanlovdan o‘tganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 124-moddasiga muvofiq ishga qabul qilinayotganda talab etiladigan hujjatlar nusxalari;

Jamiyatdagi manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatga muvofiq shaklda to‘ldirilgan va imzolangan deklaratsiya nusxasini taqdim qiladi.

12. Ma’lumotnoma olinayotganda to‘ldirilmagan bandlar mavjud bo‘lsa, nomzoddan yetmayotgan ma’lumotlarni so‘rab olishi mumkin.

13. Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi nomzoddan taqdim etilgan hujjatlar bo‘yicha tushuntirish va qo‘shimchalarni so‘rab olishga haqli.

14. Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi komplayens departamenti so‘roviga ko‘ra to‘plangan hujjatlar nusxasini taqdim etadi.

Komplayens departamenti tomonidan:

15. Olingan hujjatlari o'rganilib nomzoddan qo'shimcha ma'lumotlar so'ralashi mumkin. So'ralayotgan hujjatlar yoki ma'lumotlarni taqdim etishni rad etgan taqdirda nomzodni tekshirish ochiq foydalanuvdagi va Ijrochi tasarrufidagi ma'lumotlar asosida, shuningdek rasmiy so'rov yuborish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda ijrochi tekshiruv natijalariga oid xulosada tegishli qaydni amalga oshiradi.

16. Nomzodning O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida ko'zda tutilmagan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortishi uning ishga joylashishini rad etish uchun sabab bo'lmaydi.

5-bob. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish uchun axborot manbalari

17. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish doirasida nomzoddan olingan ma'lumotlar, shuningdek ochiq manbalardan yoki rasmiy so'rovlar yuborish orqali olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va ishlash amalga oshiriladi.

18. Ma'lumotlarni yig'ish ishga joylashayotgan nomzod haqidagi umumiy va xolis fikrni shakllantirish, nomzoddan olingan, jumladan ma'lumotnomada qayd etilgan, nomzodning tegishli saytidagi (<https://vacancy.argos.ru>, (<https://uzautojobs.uz>, <https://hh.uz> v.b.) shaxsiy profilidagi hujjatlar va ma'lumotlar ishonchliligini baholash, shuningdek o'zi haqidagi ma'lumotlarni yashirish yoki soxtalashtirish alomatlari yo'qligini tahlil qilish uchun barcha ochiq axborot manbalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

19. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish uchun axborot manbalari qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi lozim. Ijrochi boshqa davlat organlari va Jamiyatlariga, nomzodning avvalgi ish joylari, o'quv muassasalari va h.k larga taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish uchun rasmiy so'rov yuborish mumkin.

20. Ijrochi huquqni muhofaza qilish organlariga so'rov yuborish orqali nomzodning sudlanganligi, firibgarlik, korrupsiya va zo'ravonlik bilan bog'liq ishlarga aloqadorligini tekshirishi mumkin.

21. Nomzod haqidagi ma'lumotlarni tekshirish uchun quyidagi ochiq axborot manbalaridan foydalanish mumkin:

Davlat xizmatlari agentligining yuridik shaxslar va yakka tadbirkorlar ma'lumotlarini tekshirish bo'yicha platformasi - <https://fo.birdarcha.uz>

Korxona va Jamiyatlarning yagona davlat reestri (KTYADR) - <https://stat.uz/ru/uslugi-1/svedeniya-iz-egrpo>

Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali - <https://my.soliq.uz>

O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlari portali - <https://data.gov.uz/ru>

Er resurslari va davlat kadastr boshqarmasi - [http:// kadastr.uz/ru/](http://kadastr.uz/ru/)

Ijro hujjatlari bo'yicha qarzдорlarning ma'lumotlar bazasi - <https://mib.uz>

Axborot qidiruv va maxsus tizimlar (masalan, Google, Yandex, Dow Jones va h.k.)

Ushbu ro'yxat zarur bo'lganda o'zgartirilishi va kengaytirilishi mumkin bo'lgan manbalarning taxminiy ro'yxatini ifodalaydi.

6-bob. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshiruvini o'tkazish yo'nalishlari

22. Nomzodlarni tekshirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

nomzodda tugatilmagan sudlanganlik holati va (yoki) iqtisodiy, jumladan korrupsiyaviy xarakterdagi qonunbuzarliklar munosabati bilan uni ma'muriy, jinoiy yoki intizomiy javobgarlikka tortish faktlari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar yo'qligi;

sud organlari tomonidan qo'yilgan rahbarlik lavozimlarini egallashga taqiq yo'qligi – rahbarlik lavozimiga nomzod uchun;

nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari to'g'risida ularning korrupsiyaviy, firibgarlik yoki boshqa qonunga xilof faoliyatiga doir ma'lumotlar yo'qligi;

avvalgi ish joylaridan salbiy tavsiyanomalar yo'qligi;

nomzodda manfaatlar to'qnashuvi alomatlari yo'qligi;

nomzodga nisbatan boshqa xatar indikatorlari yo'qligi (jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida namoyish etilgan hayot tarzi rasmiy ish haqiga mos kelmaydi va boshqalar).

23. Qayd etilgan yo'nalishlar bo'yicha tekshiruv o'tkazish majburiy. Bunda tekshiruv yo'nalishlari ro'yxati zaruratga qarab har bir aniq holatda kengaytirilishi mumkin.

7-bob. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish natijalari

24. Nomzodni tekshiruvini o'tkazish natijalari bo'yicha Ijrochi tomonidan Nomzod tekshirilgani to'g'risidagi hisobot tuzilib (ushbu Yo'riqnoma 1-ilova shakli bo'yicha), mazkur hisobot Xodimlar bilan ishlash boshqarmasida saqlanadi. O'tkazilgan tekshiruv va uning natijalariga oid ma'lumotlar Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish reestri (ushbu Yo'riqnomaga 2-ilova)ga kiritiladi.

25. Jamiyatning Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi Jamiyatdagi Nomzodlarni tekshirish reestriga qiritiladigan ma'lumotlarni yig'ish va ushbu Reestrni aktual holda saqlash uchun javobgar hisoblanadi.

26. Tekshiruv natijalari to'g'risidagi hisobotning 3 bo'limidagi 3.2, 3.3, yoki 3.4, bandlari savollariga bitta va undan ko'p xavf indikatorlari mavjud bo'lgan taqdirda ("Ha" javoblari) ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish natijalari bo'yicha salbiy xulosa kiritiladi.

27. 3.5, 3.6 yoki 3.7 bandlaridagi savollardan biriga bittasiga bo'lsa ham bir va undan ortiq xavf indikatorlari ("Ha" javoblari) mavjud bo'lgan taqdirda, tekshiruv o'tkazayotgan shaxs vaziyatni korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjudligi yoki mavjud emasligi bo'yicha baholaydi.

28. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud bo'lgan taqdirda tekshiruv o'tkazayotgan shaxs ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni taklif qiladi yoki bunday xatarlar darajasini pasaytirish imkoni bo'lmagan taqdirda nomzodni tekshirish natijalari bo'yicha salbiy xulosa beradi.

29. Salbiy xulosa berilgan taqdirda nomzodni, shu jumladan tizim korxonalariga ishga qabul qilish Jamiyat rahbari qaroriga ko'ra nomzod ishga olinayotgan bo'linma rahbariyati tomonidan mazkur yo'nalishni nazorat qiluvchi rahbar o'rinbosari va Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i bilan kelishilgan holda tuzilgan xizmat ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi. Xizmat ma'lumotnomasiga Tekshiruv natijalari to'g'risidagi hisobot nusxasi ilova qilinadi.

30. Tekshiruv natijalari bo'yicha korrupsiyaviy xatarlar aniqlangan va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etilgan nomzod ishga olingan taqdirda xodimning rahbari tavsiya etilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini nazorat qilish uchun javobgar hisoblanadi.

8-bob. Tekshiruvni hujjatlashtirish va hujjatlarni saqlash muddatlari

31. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish natijalari (jumladan, Tekshiruv natijalari to'g'risidagi hisobot va boshqa hamroh hujjatlar) maxfiy hisoblanadi va ishga joylashayotgan nomzodni tanlab olish va tekshirish jarayonida ishtirok etmayotgan Jamiyat xodimlari va boshqa uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi.

32. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish reestri (ushbu Yo'riqnomaga 1-ilova) dan faqatgina ijrochilar foydalanishi mumkin.

33. Lavozim majburiyatlarini amalga oshirish uchun bunday ma'lumotlardan foydalanishi zarur bo'lgan boshqa xodimlar Komplayens, ishlab chikarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti direktori o'rinbosarining yozma roziligini olishi lozim.

34. Nomzod ishga joylashtirilgan taqdirda Tekshiruv o'tkazilgani haqidagi hisobotning asl nusxasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddat va tartibda xodimning shaxsiy yig'ma jildida saqlanishi shart.

35. Tekshiruv o'tkazilgani to'g'risidagi hisobot nusxasi, shuningdek hisobotdagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar va ma'lumotlar (masalan, skrinshotlar, ko'chirma, vakolatli muassasalarga yuborilgan so'rovlar va ularga olingan javoblar va h.k) Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi tomonidan kamida 10 (o'n) yil davomida saqlanishi shart.

36. Jamiyatga ishga joylasha ololmagan nomzodlarni tekshirish natijalari uch yil davomida saqlanadi.

37. Agar nomzod Jamiyatda ishlashga so'nggi tekshiruv o'tkazilgandan so'ng 2 yil davomida da'vogar bo'lsa, qayta tekshiruv talab etilmaydi (manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha tekshiruv bundan mustasno). Agar so'nggi tekshiruv o'tkazilganiga ikki yildan ortiq vaqt bo'lgan bo'lsa, nomzod qayta tekshirilishi lozim.

9-bob. Yakuniy qoidalar

38. Ushbu Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'zgargan taqdirda yoki nomzodlarni tekshirish jarayonini takomillashtirish zarurati tug'ilganda qayta ko'rib chiqilishi va o'zgartirilishi lozim.

39. Ushbu Yo'riqnoma qoidalarini buzishda aybdor xodimlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyat ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan tartib va asosda intizomiy va boshqa javobgarlikka tortilishi mumkin.

“O‘zavtosanoat” AJga ishga qabul
qilinayotgan nomzodlarni tekshirish
bo‘yicha yo‘riqnomaga 1-ilova

Nomzod tekshirilgani to‘g‘risidagi hisobot

1.	Asosiy ma’lumotlar				
1.1	Nomzodning F.I.Sh.				
1.2	Tug‘ilgan sanasi				
1.3	Bo‘sh lavozim nomi				
1.4	Bo‘linma				
1.5	Bog‘lanish uchun telefon				
1.6	El.pochta manzili				
2.	Ish tajribasi				
2.1	Avvalgi ish joylari (teskari xronologik tartibda), lavozimlari				
2.2	Avvalgi ish joylaridan salbiy fikrlar mavjudligi	<table border="1" style="width: 100%;"> <tr> <td style="width: 50%; text-align: center;">Ha</td> <td style="width: 50%; text-align: center;">Yo‘q</td> </tr> </table> Izoh (lar): Manba(lar):		Ha	Yo‘q
Ha	Yo‘q				
3.	Tekshiruv natijalari				
3.1	Ushbu Yo‘riqnomaning 11-bandida ko‘zda tutilgan hujjatlarning to‘liq paketi olindimi? («Yo‘q» javobi faqatgina O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 124-moddasiga muvofiq ishga qabul qilish vaqtida talab etilgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda berilishi mumkin)	<table border="1" style="width: 100%;"> <tr> <td style="width: 50%; text-align: center;">Ha</td> <td style="width: 50%; text-align: center;">Yo‘q</td> </tr> </table> Etishmayotgan hujjat(lar): Ularning yo‘qligi sababi(lari):		Ha	Yo‘q
Ha	Yo‘q				
3.2	Nomzoddan olingan, jumladan ma'lumotnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning	<table border="1" style="width: 100%;"> <tr> <td style="width: 50%; text-align: center;">Ha</td> <td style="width: 50%; text-align: center;">Yo‘q</td> </tr> </table> Izoh(lar): Manba(lar):		Ha	Yo‘q
Ha	Yo‘q				

	ishonchlilik alomatlari va u tomonidan o‘zi haqidagi ayrim ma’lumotlarni yashirish yoki soxtalashtirish alomatlari yo‘qligi					
3.3	Nomzodda tugatilmagan intizomiy javobgarlikka tortish faktlari mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yo‘qligi	<table><tr><td>☐</td><td>Ha</td><td>☐</td><td>Yo‘q</td></tr></table> (agar javob ijobiy bo‘lsa, asosini ko‘rsating) Izoh(lar): Manba(lar):	☐	Ha	☐	Yo‘q
☐	Ha	☐	Yo‘q			
3.4	Nomzodda manfaatlar to‘qnashuvi alomatlari mavjudligi:	<table><tr><td>☐</td><td>Ha</td><td>☐</td><td>Yo‘q</td></tr></table>	☐	Ha	☐	Yo‘q
☐	Ha	☐	Yo‘q			
	1) nomzodning yaqin qarindoshlari Jamiyatning amaldagi xodimi hisoblanadi	<table><tr><td>☐</td><td>Ha</td><td>☐</td><td>Yo‘q</td></tr></table> (agar javob ijobiy bo‘lsa: ish joyi, lavozimi, asosiy majburiyatlarini ko‘rsating) Izoh(lar): Manba(lar):	☐	Ha	☐	Yo‘q
☐	Ha	☐	Yo‘q			
	2) Nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari rahbarlik lavozimi yoki qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq lavozimni egallab turgan bo‘lsa yoki potentsial ravishda Jamiyat kontragentlari bo‘lishi mumkin bo‘lgan kompaniyalar boshqaruv organlari tarkibiga kirs	<table><tr><td>☐</td><td>Ha</td><td>☐</td><td>Yo‘q</td></tr></table> (agar javob ijobiy bo‘lsa: FISH va qarindoshlik darajasi (agar manfaatlar to‘qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog‘liq bo‘lsa), kompaniya nomi, lavozimi) Izoh(lar): Manba(lar):	☐	Ha	☐	Yo‘q
☐	Ha	☐	Yo‘q			
	3) Nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari har qanday Jamiyatning ommaviy muomalada bo‘lmagan aktsiyalari yoki	<table><tr><td>☐</td><td>Ha</td><td>☐</td><td>Yo‘q</td></tr></table> (agar javob ijobiy bo‘lsa: FISH va qarindoshlik darajasi (agar manfaatlar to‘qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog‘liq bo‘lsa), kompaniya nomi, lavozimi)	☐	Ha	☐	Yo‘q
☐	Ha	☐	Yo‘q			

	ustav kapitalidagi ulushi yoxud Respublika fond birjasi yoki boshqa fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan qimmatbaho qog'ozlarning 5% va undan ortig'iga egalik qilsa yoki kompaniyalar faoliyati natijalarida shaxsiy manfaatdorligi bo'lsa (jumladan, investitsiyalar kiritish orqali)	Izoh(lar):	
		Manba(lar):	
	4) Boshqa alomatlar	☐ Ha	☐ Yo'q
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	
3.5	Ish joyida nomzod yoki uning yaqin qarindoshlarining korrupsiyaviy, firibgarlik yoki boshqa qonunga xilof faoliyatiga doir ma'lumotlar yo'qligi	☐ Ha	☐ Yo'q
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	
3.6	Nomzodga nisbatan boshqa xatar indikatorlari yo'qligi (jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida namoyish etilgan hayot tarzi rasmiy ish haqiga mos kelmaydi va boshqalar).	☐ Ha	☐ Yo'q
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	
3.7	Boshqa ma'lumotlar (jumladan, intervyu natijalari)	☐ Ha	☐ Yo'q
		Izoh(lar):	
		Manba(lar):	

4.	Korrupsiyaviy, xuquqiy, reputatsion va boshqa turdagi xavflar mavjudligi		
	Korrupsiyaviy va boshqa turdagi jinoyatlar sodir etganligi, avvalgi ish joyi obro'siga putr etkazganganligi, OAVda nomzodga oid salbiy xabarlar va boshqa holatlar yuzasidan ma'lumotlar mavjudligi (ma'lumotlar og'zaki so'rovlar, turli manbaalarni tahlil qilish orqali olinishi mumkin)	Ha	Yo'q
	Izoh(lar):		
5.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlar tahlili (3.4 hamda 3.5 bandlariga yoki ushbu bandlarning bittasiga javob ijobiy bo'lsa) va ularni minimallashtirish choralari bo'yicha tavsiyalar		
6.	Xulosa		
		Ha / Yo'q	Izohlar
	3.2, 3.3 va 3.4 bandlarida ko'rsatilgan xatar indikatorlari mavjudligi		Qayd etilgan toifadagi aqalli bitta xatar mavjud bo'lgan taqdirda xulosa salbiy beriladi
	3.5, 3.6, 3.7 va/ yoki 4 bandlarida xatar indikatorlari mavjudligi		Yuqori korrupsiyaviy xavf-xatarlar va ularni kamaytirish bo'yicha choralar ko'rish imkonsiz bo'lgan taqdirda xulosa salbiy beriladi
YAKUNIY NATIJA		(Salbiy /Ijobiy xulosa)	
TAVSIYALAR (aniqlangan xatarlarni hisobga olgan holda)			

Ijrochi

(FISH)

(imzo)

“ ” 20__yil. (sana)

“O‘zavtosanoat” AJga ishga qabul
qilinayotgan nomzodlarni tekshirish
bo‘yicha yo‘riqnomaga 2-ilova

Jamiyatga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish reestri

T/r	Nomzodning FISh	Bo‘sh lavozim nomi	Jamiyatdagi bo‘linma yoki tizim korxona nomi	Tekshiruv ijrochisi, FISh	Nomzodni tekshirish bo‘yicha hisobot sanasi va raqami	Tekshiruv natijasi (musbat / manfiy / aniqlangan xatarlar)	Tekshiruv natijasini asoslovchi qisqa izohlar
1	2	3	4	5	6	7	8
1							
2							
3							
4							
5							
...							